

## BOLANING ILK MAKTAB DAVRIDA KOGNITIV RIVOJLANISHIDA O‘QITUVCHI VA ONA HAMKORLIGINING AHAMIYATI

Alimardanova Ra‘no Narbayevna

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti,  
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

### **Annotatsiya:**

Mazkur maqolada bolaning ilk maktab davrida kognitiv rivojlanishi jarayonida o‘qituvchi va ona hamkorligining o‘ziga xos o‘rni tahlil qilingan. Zamonaviy pedagogik va kognitiv psixologiya nazariyalari asosida onaning mehr-muhabbat va emotsional qo‘llab-quvvatlash orqali bola ongini boyitishdagi vazifalari hamda o‘qituvchining ta’limiy dastur va metodikalar orqali kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirishdagi roli ochib berilgan. Tadqiqotda V.Vygotskiyning “yaqin rivojlanish zonasi” nazariyasi, J.Piaje kognitiv rivojlanish bosqichlari va zamonaviy etnopedagogik tadqiqotlar asosida ilmiy tahlil olib borilgan. Natijada bolaning kognitiv rivojlanishi samaradorligi uchun oila (ona) va maktab (o‘qituvchi) o‘rtasidagi hamkorlikning tizimli va uyg‘un bo‘lishi zarurligi ilmiy asoslangan.

**Kalit so‘zlar:** kognitiv rivojlanish, kompetensiya, nazariya, ilk maktab davri, o‘qituvchi, ona, hamkorlik, Vygotskiy, Piaje, pedagogik psixologiya.

### **Аннотация:**

В статье анализируется уникальная роль сотрудничества педагога и матери в процессе когнитивного развития ребёнка младшего школьного возраста. На основе современных педагогических и когнитивно-психологических теорий раскрываются задачи матери в обогащении психики ребёнка посредством любви и эмоциональной поддержки, а также роль учителя в развитии когнитивных способностей посредством образовательных программ и методов. В исследовании проведён научный анализ, основанный на теории «зоны ближайшего развития» В. Выготского, стадиях когнитивного развития Ж. Пиаже и современных этнопедagogических исследованиях. В результате научно обосновано, что для эффективности когнитивного развития ребёнка необходимо системное и гармоничное сотрудничество семьи (матери) и школы (учителя).

**Ключевые слова:** когнитивное развитие, компетентность, теория, ранний школьный возраст, учитель, мать, сотрудничество, Выготский, Пиаже, педагогическая психология.

**Abstract:**

This article analyzes the unique role of teacher-mother cooperation in the process of cognitive development of a child in the early school years. Based on modern pedagogical and cognitive psychology theories, the mother's tasks in enriching the child's mind through love and emotional support, as well as the teacher's role in developing cognitive abilities through educational programs and methods, are revealed. The study conducted a scientific analysis based on V. Vygotsky's theory of the "zone of proximal development", J. Piaget's stages of cognitive development, and modern ethnopedagogical research. As a result, it was scientifically substantiated that for the effectiveness of a child's cognitive development, the need for systematic and harmonious cooperation between the family (mother) and the school (teacher) is necessary.

**Keywords:** cognitive development, competence, theory, early school years, teacher, mother, cooperation, Vygotsky, Piaget, pedagogical psychology.

**Kirishio** Ilk maktab davri bola hayotida intellektual va shaxsiy rivojlanishning eng muhim bosqichidir. Bu davrda bola dunyo haqidagi tasavvurlarini kengaytiradi, logik fikrlash va mulohaza yuritish qobiliyatlarini shakllantiradi, asosiy ta'limiy ko'nikmalarga ega bo'ladi. Pedagogik va psixologiya tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, kognitiv rivojlanish jarayonida maktab muhiti va oila muhiti o'zaro uyg'un bo'lishi zarur.

O'qituvchi bolaga ilmiy bilimlar va o'quv metodikalar orqali yo'nalish bersa, ona kundalik hayotdagi muloqot, hissiy qo'llab-quvvatlash va nazorat orqali o'sha bilimlarni mustahkamlaydi. Shuning uchun ham zamonaviy pedagogikada "maktab-oila hamkorligi" nazariyasi bola kognitiv rivojlanishining asosiy shartlaridan biri sifatida qabul qilinadi.

**Adabiyotlar tahlili.** O'zbekistonda bolaning kognitiv rivojlanishi, ayniqsa ilk maktab davrida ota-ona va o'qituvchi hamkorligi masalasi 2000-yillardan boshlab alohida ilmiy yo'nalish sifatida shakllandi. Pedagogika va psixologiya sohasidagi olimlar bola shaxsiyatining rivojlanishi oila muhiti va ta'lim muassasasi o'rtasidagi uyg'unlikka bog'liq ekanligini alohida ta'kidlab keladilar.

A.Abdullayev o'zining "Pedagogika nazariyasi va amaliyoti" asarida bolaning ilk bilimlari oila muhitida shakllanishini, maktab esa uni tizimli ravishda kengaytirib va mustahkamlab borishini ta'kidlaydi. N.Hamidov "Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda ota-ona hamkorligi" mavzusidagi tadqiqotlarida bolaning kognitiv rivojlanishi samarali bo'lishi uchun oila va maktabdagi talablar bir-biriga zid bo'lmasligi kerakligini ta'kidlaydi. S.Yusupova "Boshlang'ich ta'lim psixologiyasi" asarida bolaning kognitiv qobiliyatlari ilk maktab davrida tez rivojlanishi, shuning uchun bu bosqichda ota-ona, ayniqsa ona bilan muloqotning mazmuni hal qiluvchi ahamiyat kasb etishini asoslaydi. N.Xodjayeva o'z tadqiqotlarida bolaning

kognitiv rivojlanishida ona shaxsining ta'siriga alohida to'xtalib, ona mehribonligi, muloqotdagi samimiyligi va bolaning hissiy ehtiyojlariga javob berishi uning fikrlash qobiliyatlarini kengaytiradi, nutqini boyitadi va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi, degan xulosaga keladi. M.Asqarovaning ishlanmalarida esa o'qituvchi va ona hamkorligining amaliy modellari taklif etilgan. U ota-ona va maktab aloqalari samarali bo'lishi uchun muntazam ravishda ota-onalar yig'ilishlari, kitobxonlik kechalari, ijodiy ko'rik-tanlovlar tashkil etishni taklif qiladi. Bu tadbirlarda ona ishtirokini ta'minlash bolaning rag'batini kuchaytiradi, uning bilimga qiziqishini oshiradi. J.Rahimov esa oila va maktab hamkorligini sotsiologik nuqtai nazardan tahlil qilib, bola shaxsiyatining to'laqonli rivojlanishi uchun faqat kognitiv omillar emas, balki ijtimoiy muhitning uyg'unligi ham muhim, deb hisoblaydi.

Kognitiv rivojlanish bolaning fikrlash, xotira, diqqat, muammo yechish va til qobiliyatlarining rivojlanishi bilan uzviy bog'liq. Masalan, J.Piaje nazariyasiga ko'ra, ilk maktab davri (6-11 yosh) bola "konkret operatsiyalar" bosqichida bo'ladi. Bu bosqichda bola narsalarni mantiqiy qiyoslaydi, sabab-oqibat aloqalarini tushunadi, lekin abstrakt fikrlash hali to'la shakllanmagan. Shuning uchun o'qituvchi bilim berish jarayonida ko'proq aniq misollar, ko'rgazmalar va tajribalardan foydalanishi zarur. Ona esa uy sharoitida bolaga kundalik hayotdagi misollar orqali bu bilimlarni mustahkamlaydi.

V.Vygotskiyning "yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasiga ko'ra, bola kattalar va tengdoshlar yordamida o'z imkoniyatlaridan yuqori natijalarga erisha oladi. Bu yerda o'qituvchi "o'quv vazifalarini tuzuvchi", ona esa "ruhiy qo'llab-quvvatlovchi" sifatida namoyon bo'ladi.

**Tahlil va natija.** Barchamizga ma'lumki, ilk maktab davri bolaning kognitiv rivojlanishida o'ta muhim bosqich hisoblanadi. Bu davrda bola dunyo haqidagi tasavvurlarini to'liq shakllantirishga, mantiqiy fikrlash va mulohaza yuritish qobiliyatlarini rivojlantirishga, ta'limiy bilim va ko'nikmalarni egallashga kirishadi. Kognitiv rivojlanish jarayonida ikki asosiy omil hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi: maktab muhiti va oila muhiti. Maktabda o'qituvchi orqali bilimlar, ko'nikmalar, metodik va pedagogik ta'sir yo'lga qo'yilsa, oilada, ayniqsa ona orqali, ruhiy qo'llab-quvvatlash, kundalik muloqot va qiziqishlarni rag'batlantirish amaliyotga joriy etiladi. Shuning uchun ham zamonaviy pedagogik va psixologiya tadqiqotlari bolaning kognitiv rivojlanishini ta'minlash uchun o'qituvchi va ona hamkorligini asosiy shart sifatida ko'rsatadi. O'qituvchi ilk maktab davrida bolaning kognitiv rivojlanishida markaziy o'rin tutadi. Uning vazifalari quyidagilardan iborat:

- ✓ Ta'limiy dasturlar orqali bolaning bilim olish jarayonini yo'naltirish;
- ✓ Mantiqiy fikrlash va savol berish ko'nikmasini rivojlantirish;
- ✓ O'quvchilarda mustaqil fikrlashni qo'llab-quvvatlash;
- ✓ Bilimni amaliyot bilan bog'lash (tabiatni kuzatish, tajriba o'tkazish, mashqlar).

Zamonaviy tadqiqotlar ko'rsatadiki, bolalarga faqat faktlarni yodlatish emas, balki ularni tahlil qilish, qiyoslash va umumlashtirish imkoniyatini berish kognitiv rivojlanishni tezlashtiradi.

Bolaning aqliy rivojlanishi nazariy jihatdan Jan Piaje, Lev Vygotskiy, Jerom Bruner kabi olimlar tomonidan chuqur o'rganilgan. Piaje fikriga ko'ra, 6-11 yoshli bolalar "konkret operatsiyalar" bosqichida bo'lib, ular mantiqiy qiyoslash, sabab-oqibat aloqalarini tushunish va amaliy misollar asosida xulosa chiqarish qobiliyatiga ega bo'ladi.

Shu bois maktab o'qituvchisi bilim berish jarayonida nazariy faktlarni emas, balki ko'rgazmali materiallar, aniq tajribalar va hayotiy misollardan foydalanishi kerak. Bu jarayonda ona bola bilan uyda o'quv materiallarini qayta ko'rib chiqib, kundalik hayotdagi vaziyatlar bilan bog'lab tushuntirishi kerak.

Vygotskiyning "yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasi esa bola imkoniyatlarini to'liq ochish uchun kattalar yordamining ahamiyatini asoslab bergan. Unga ko'ra, bola mustaqil holda bajara olmaydigan vazifalarni kattalarning ko'magi bilan bajarishi mumkin. Shu o'rinda o'qituvchi bolaga bilim berish jarayonida yo'l-yo'riq ko'rsatadi, uning harakatlarini nazorat qiladi va uni yuqori natijaga yetaklaydi. Ona esa ruhiy qo'llab-quvvatlash, doimiy rag'batlantirish va bolaning o'z kuchiga ishonishini ta'minlaydi. Demak, o'qituvchi bola uchun "o'quv vazifalarini tuzuvchi va boshqaruvchi" bo'lsa, ona uning "emotsional tayanchi va kuch bag'ishlovchisi" hisoblanadi.

Zamonaviy psixologiyada kognitiv rivojlanishning ko'p qirrali ekani ta'kidlanadi. Masalan, Govard Gardnerning "ko'p turdagi intellektlar nazariyasi"ga ko'ra, inson faqat mantiqiy-matematik yoki til qobiliyati bilan cheklanmaydi. Unda musiqa, sport, ijodiy faoliyat, hissiy intellekt kabi ko'plab yo'nalishlar mavjud. Shu nuqtai nazardan bolaning kognitiv rivojlanishi uchun faqat dars jarayoni yetarli emas, balki turli madaniy va ijodiy faoliyatlar ham zarur. Bu yerda ona farzandning qiziqishlarini qo'llab-quvvatlab, uning iste'dodini rivojlantirishga sharoit yaratadi, o'qituvchi esa turli fan va mashg'ulotlar orqali bilimni tizimli ravishda boyitadi.

Kundalik hayotda o'qituvchi va ona bir-birini to'ldiruvchi rollarni bajaradi. O'qituvchi bilim berish jarayonida mantiqiy fikrlash, savol berish, tahlil qilish va umumlashtirishga yo'naltirsa, ona kundalik muloqot va turmushda bolaning savollariga javob berib, bilimlarni hayotiy tajriba bilan uyg'unlashtiradi. Bolaning kognitiv rivojlanishi samarali kechishi uchun uning bilimlari doimiy nazoratda bo'lishi, shu bilan birga ruhiy qo'llab-quvvatlanishi zarur. Masalan, o'qituvchi sinfda yangi mavzularni tushuntirar ekan, ona uyda shu mavzularni qayta ko'rib chiqishi va bolaning savollariga javob berishi orqali ma'lumotlarni mustahkamlaydi. Kognitiv rivojlanishda turli muammolar ham uchraydi. Masalan, ayrim hollarda ona ish bilan band bo'lib, farzandining o'qishiga yetarlicha e'tibor bera olmaydi. Bu holatda bola maktabda olgan bilimlarini uyda mustahkamlay olmay, qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Yechim sifatida maktabda ota-onalar klublari tashkil etish, onlayn muloqot platformalaridan foydalanish taklif etiladi. Ba'zi hollarda esa o'qituvchi va ona o'rtasida axborot almashish yetarli darajada yo'lga qo'yilmagan bo'ladi. Bunga yechim sifatida elektron kundaliklar, mobil ilovalar yoki

messenjer orqali doimiy muloqot tavsiya qilinadi. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalardan noto'g'ri foydalanish bolaning kognitiv rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bois o'qituvchi va ona birgalikda bolaning raqamli madaniyatini yo'lga qo'yib, uning onlayn faoliyatini nazorat qilishi va to'g'ri yo'naltirishi lozim.

Ilmiy tadqiqotlar ko'rsatadiki, maktab va oila muhiti uyg'un bo'lganda bolaning kognitiv rivojlanishi nafaqat tezroq kechadi, balki barqaror natija ham beradi. Masalan, AQSh va Yevropa mamlakatlarida olib borilgan izlanishlarda maktab-oila hamkorligi yuqori bo'lgan bolalarning savodxonlik darajasi, mantiqiy fikrlash qobiliyati va ijodiy faolligi boshqalarga nisbatan yuqori bo'lishi aniqlangan. O'zbekiston olimlari ham shuni ta'kidlaydilar, ota-ona va o'qituvchi hamkorligida tarbiyalangan bolalarning ijtimoiy adaptatsiyasi tezroq kechadi, ular maktabdagi ta'limiy jarayonga ko'proq qiziqish bilan yondashadi.

Shu bilan birga, bolaning kognitiv rivojlanishida madaniy va milliy qadriyatlar ham muhim ahamiyatga ega. O'zbek oilalarida ona farzandni kitobxonlikka, mehnatsevarlikka, kattalarga hurmat va kichiklarga g'amxo'rlikka o'rgatish orqali uning ma'naviy rivojlanishiga hissa qo'shadi. O'qituvchi esa bu qadriyatlarni ta'lim dasturlari orqali mustahkamlaydi. Shu tariqa, milliy an'analar va zamonaviy pedagogika uyg'un holda bolaning kognitiv rivojlanishiga xizmat qiladi.

Natijada, ilk maktab davrida bola shaxsiyatida kognitiv rivojlanish, emotsional barqarorlik va ijtimoiy qobiliyatlar uyg'un ravishda namoyon bo'ladi. Bu jarayonning muvaffaqiyati esa ko'p jihatdan o'qituvchi va ona o'rtasidagi hamkorlikka bog'liq. Agar ular bola tarbiyasi va ta'limida bir-birini to'ldiruvchi va uyg'un yo'l tuta olsalar, farzandning aqliy rivojlanishi samarali kechadi va u kelgusida jamiyatda munosib o'rin topishi uchun barqaror poydevorga ega bo'ladi.

## Xulosa

Bolaning ilk maktab davrida kognitiv rivojlanishi jadal kechadi va bu jarayonda o'qituvchi va ona hamkorligi hal qiluvchi ahamiyatga ega. O'qituvchi - bilim va metodika manbai, ona - mehr va ruhiy qo'llab-quvvatlash manbai. Ularning uyg'unligi bolaning mantiqiy fikrlashini, muloqot qobiliyatlarini va ijodiy imkoniyatlarini kuchaytiradi.

Zamonaviy pedagogika va kognitiv psixologiya tajribalari shuni ko'rsatadiki, bola uchun maktab va oila muhiti uyg'un bo'lsa, uning kognitiv rivojlanishi samarali kechadi. Shu bois, har bir maktabda ota-ona bilan muloqotni mustahkamlash, ona ishtirokini ta'limiy jarayonga jalb qilish, pedagogik hamkorlikni tizimli ravishda yo'lga qo'yish - zamonaviy ta'limning strategik vazifasi hisoblanadi.

**ADABIYOTLAR**

1. Abdullayev A. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. - Toshkent: Fan, 2019. - 280 b.
2. Hamidov N. Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda ota-ona hamkorligining nazariy asoslari. - Samarqand: SamDU nashriyoti, 2021. - 215 b.
3. Yusupova S. Boshlang'ich ta'lim psixologiyasi. - Toshkent: Ma'naviyat, 2018. - 190 b.
4. Xodjayeva N. Bolaning kognitiv rivojlanishida oila muhitining ta'siri. - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020. - 210 b.
5. Asqarova M. O'quvchi shaxsini rivojlantirishda maktab-oila hamkorligi. // Pedagogik tadqiqotlar jurnali. - 2022. - №4. - B. 67-74.
6. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. - Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978. - 180 p.
7. Piaget J. The Child's Conception of the World. - New York: Harcourt, 1929. - 247 p.
8. Bruner J. The Process of Education. - Cambridge, MA: Harvard University Press, 1960. - 183 p.
9. Abdullayeva M. Bolaning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishda pedagogik hamkorlik. - Toshkent: Universitet, 2017. - 175 b.
10. Rahimov J. Oila va maktab hamkorligida bola shaxsini rivojlantirish. - Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2022. - 240 b.
11. Xasanova Z. Maktab psixologiyasi: nazariya va amaliyot. - Toshkent: Ilm Ziyosi, 2016. - 198 b.